

IJTIMOYIY ISH ETIKASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI*Isoqulova Durdona Jaxongir qizi**Xolmanova Oyro`za Akmal qizi**Abduvohidova Umida Abdug`ani qizi**Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali,**Aniq va tabbiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" yo`nalishi talabasi**Ilmiy rahbar: Ishmuradov Bunyod Farhodovich**Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo`rg`on filiali o`qituvchisi*

Anatatsiya: Ushbu maqolada "ijtimoiy ish etikasining rivojlanish bosqichlari" tushunchasining ijtimoiy mohiyati, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha turlicha nazariy yondashuvlar, ijtimoiy xizmatlar bozori rivojlanishining shart-sharoitlari va tamoyillari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish etikasi, ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayoni, etik tamoyillar, etik maqsad

Annotation: In this article, the social nature, content and characteristics of the concept of "development stages of social work ethics", various theoretical approaches to the provision of social services, the conditions and principles of the development of the social services market are studied.

Keywords: Social service, social work ethicks, social values, social servise, ethical princeples, ethical purpose

Ijtimoiy ish — bu odamlarga ijtimoiy guruhlariga qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat. U yolg'iz nafaqaxo'rlar va nogironlarga yordamni ham, shuningdek, qiynalgan bolali oilalar, uysizlar, giyohvandlar, aroqxo'rlar va ruhiy kasallarga yordamni ham o'z ichiga oladi.

2001-yil 27-iyunda Kopengagenda Ijtimoiy ish maktablari xalqaro assotsiatsiyasi va Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy ish ta'rifidan kelib chiqqan holda, „ijtimoiy ishchilarning kasbiy faoliyati jamiyatdagi o'zgarishlarga, insoniy munosabatlar muammolarini hal qilishga hissa qo'shadi; jamiyatda funktsional mavjudlik qobiliyatini mustahkamlashga va odamlarning farovonlik darajasini oshirish maqsadida ularni qutqarishga yordam beradi. Inson xulq-atvori va ijtimoiy tizimlar nazariyalaridan foydalangan holda, ijtimoiy ish odamlarning o'z atrofida bilan hamkorlik qilishga targ'ib qiladi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ishning asosidir“.

Etika - bu gumanitar ta'limot bo'lib, uning predmeti axloq, markaziy muammosi esa - yaxshilik va yomonlik nisbati muammosi hisoblanadi. Etikaning axloq nazariyasi

sifatidagi o'ziga xos xususiyati uning predmeti, tadqiqot usullari, mavjud axloq qoidalarini ifodalashdan iborat va boshqa gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq. Etikaning asosiy vazifalari: odob-axloq qoidalarini izohlash, odobaxloq qoidalarini ta'riflash, odob-axloq qoidalariga o'rgatish (mazkur vazifa eng bahsli masalalardan biri hisoblanadi). Axloqiy mohiyatni ikki turga ajratish mumkin: gumanistik va avtoritar etika. Gumanistik etikaning prinsipial qarashlari uni qator jihatlarga ko'ra avtoritar etika bilan o'zaro taqqoslash imkonini beradi: ya'ni ay nan, 6 «mualliflik» va «ijro» bo'yicha farqlash, maqsad va vazifalar bo'yicha tasniflash, tartibga solish usullari bo'yicha ajratish, axloqiy prinsiplarga ko'ra farqlash. Biroq, etikaning ushbu ikki turini bir-biriga qaramaqarshi qo'yish mumkin emas, aksincha, ushbu ikki etika bir biridan to'liq farq qilmaydi, balki etika fanining ikki ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi, deb hisoblash to'g'riroq bo'ladi.

«Professional axloq kasb mohiyatini aks ettiruvchi ideallar va qadriyatlar, axloqiy prinsiplar hamda xulq me'yorlari sifatidagi professional axloq haqidagi fanni aks ettiradi. Shu bilan birga professional axloq - bu professional guruhning ma'naviy o'z-o'zini anglashi, uning psixologiyasi va mafkurasi demakdir»¹. Kasbiy axloq tomonidan o'rganiluvchi predmetga oid sohasi quyidagilardan iborat:

- kasbiy axloq kasb ideallari va qadriyatlari majmui sifatida;
- axloqiy prinsiplar, xulq me'yorlari, kodekslari;
- mutaxassisning kasbiy burchini bajarishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlari;
- mutaxassisning ma'naviy o'zaro munosabatlari;
- kasbiy ta'lim va tarbiyaning maqsadlari hamda usullari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti professional guruhlarining ajratilishi va kasbiy axloqning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy guruhlarining ajratib ko'rsatilishi bilan mazkur guruhlar ichida odamlarning munosabatlarini tartibga solish ehtiyoji vujudga keladi. Jamiyat rivojlanishi bilan odamlar orasidagi o'ziga xos o'zaro munosabatlarni shakllantirishga imkoniyat yaratuvchi yangi va yangi kasblar paydo bo'lmoqda. Professionalning o'zaro bir-birlari bilan, ularning mehnati iste'molchilari bilan munosabatlari amaliyotlarida, ularning faoliyatini tartibga solish tajribalari asosida kasbiy axloqning odatiy ma'muriy-huquqiy tartibga soluvchi (me'yorlar, yo'riqnomalar) asoslari shakllangan. Professional (kasbiy) munosabatlar kasbning nisbatan mustaqilligini, uning ma'naviy muhitini ifodalay boshladi, bu esa o'z navbatida odamlar harakatlarining o'ziga xos jihatlari va ularning xulqlarining me'yorlarini belgilab berdi.

Professional mehnat insonparvarlik mavzularining turli ko'rinishdagi majmualariga bog'liq, chunki, insonning salomatligi holati, ma'naviy dunyosi va jamiyatdagi o'rnini, uning huquqlarini hamda asosiy hayotiy qadriyatlarini himoya qilish aynan mehnat samaradorligiga bog'liq. Bu kabi kasblar xodimlariga odatda yuqori

professional talablar qo'yiladi, chunki odamlar hayoti, ulaming jismoniy va ijtimoiy salomatligi aynan ularga bog'liq. Shu sababli, yangi cheklovlar va taqiqlar, yangi asoslar, qadriyatlar va ideallarga zarurat vujudga keladi. Bularning bari yangi, nisbatan oliy va ko'p qirrali ma'naviy javobgarlikning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Qator holatlarda bu alohida kodekslar, deklaratsiyalar, turli ko'rinishdagi "qasamlar"ni ishlab chiqishni (so'ngra ularni belgilab qo'yishni) talab etgan. Ular bir tomondan professionallarning kasbiy faoliyat "iste'molchilari"ning manfaatlari o'z ifodasini topgan muayyan xulqiy standartlarga amal qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Boshqa tomondan esa ular "ulkan" jamiyatdagi professional uyushmalarning axloqiy nufuzi va obro'-e'tiborini saqlash, ularga bo'Mgan ishonchni singdirish va bu bilan mazkur uyushmalar a'zolarining shaxsiy rivojlanishi uchun moddiy hamda ma'naviy-axloqiy asoslarni ta'minlashga qaratilgan. Tashqariga qaratilgan talablar bilan bir qatorda professional uyushmalar o'z a'zolarini ham tartibga soluvchi ma'naviy me'yoriy ishlab chiqish va mustahkamlashga intilganlar. Mazkur jihatdan G'arbiy Yevropa shaharlarida ishlab chiqarish sexlarining faoliyatini belgilab beruvchi ustavlar muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy ish etikasining o'rganish ob'ekti sifatida umumiy falsafa va kasbiy axloqdagi kabi mutaxassislarning ijtimoiy voqelik, kasbiy faoliyat va mutaxassis, uning turmushi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilganligi ta'siri ostida shakllanuvchi kasbiy axloqi namoyon bo'ladi. Uning predmeti ijtimoiy xodimlar faoliyati jarayonida o'zaro, mijozlar (mijozlar guruhi) bilan, turli organ va muassasalar vakillari hamda umuman jamiyat bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek, mutaxassislarning ular tomonidan o'z professional majburiyatlarini bajarish jarayonidagi axloqiy harakatlari va ularning axloqiy tajribasi hisoblanadi. Ijtimoiy ish etikasining maqsadi - professional faoliyatning ijtimoiy ma'qullangan mohiyati va maqsadlarini ta'minlash va qo'llab-quvatlashdan iborat, uning asosiy vazifasi esa - professional guruhning alohida vakillari va ularning uyushmalarining munosabatlari, xulqi va harakatlarini me'yoriy jihatdan tartibga solish va nazorat qilish, mutaxassislarning tafakkuriga ta'sir ko'rsatish va ularning ma'naviy qiyofasi, axloqiy tafakkuri hamda ehtiyojlarini shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy ishning professional axloqiy tizimining asosi - bu kasbiy faoliyatning ma'nosi, mazmun va mohiyati bilan bir qatorda barcha kasblar vakillari uchun umumiy bo'lgan, uning ijtimoiy vazifalarida ifodalangan kasbiy axloq talablari hisoblanadi. Jamiyatda hozir ham mavjud va avval ham mavjud bo'lgan kasb u yoki bu darajada muayyan mahsulotga ehtiyoji bo'lgan jamiyat tomonidan talabga ega bo'Madi, bu esa o'z navbatida jamiyatning muayyan ijtimoiy buyurtmasini bajaruvchi va shunga muvofiq ravishda muayyan vazifalarni bajaruvchi aniq maqsadli yo'naltirilgan professional faoliyatning rivojlanishini taqozo qiladi. Demak, insonning hayotda muhim o'rin tutgan, jamiyat taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi professional faoliyati axloqiy 12 me'yoriy va prinsiplarning kasbiy faoliyat

mohiyatiga va bu jarayonda odamlar orasida vujudga keluvchi ish lab chiqarish munosabatlarida hamda ijtimoiy buyurtmani bajarish sohasida sotsium talablari va umidlari kabi talablarga javob beruvchi o'ziga xos va aniq tizimlarini ishlab chiqishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi yig'ilishi, 2017 y., Ars 6, bet. 70. <http://www.lex.az>
2. IJTIMOIIY ISHNING ETIK PRINSIPLARI VA QADRIYATLARI
N.M.LATEPOVA Q.N.KAYUMOV
3. NASW (National Association of Social Workers) (1958) Working definitions of social work practice, Social Work
4. Reamer, F.G. Social Work Values and Ethics, 2nd edn. New York: Columbia University Press. 2006.
5. General Social Care Council Codes of Practice. London: General Social Care Council. 2004